Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

DIALEKTOLOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA ULARNING LINGVISTIK ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Sattibayeva Surayyo Jaxongir qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch Davlat Universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti
“Roman- german filologiyasi” kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24187809

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada dialektologik tadqiqotlarning metodologik tizimi va ularnin g lingvistik ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda dialektal materialni yig‘ish, transkripsiya qi lish, tasniflash, qiyoslash, statistik va areal-kartografik tahlil qilish metodlari o‘rganiladi. Maqolada dial ektologiya tilning hududiy, ijtimoiy va funksional xilma-xilligini o‘rganuvchi soha sifatida talqin etilib, shevalarning adabiy til, til tarixi, lingvistik geografiya va sosiolingvistika bilan o‘zaro aloqasi yoritiladi. Tadqiqot natijasida dialektologik tadqiqotlarda kompleks metodologik yondashuvning samaradorligi aso slanadi. Muallifning ilmiy hissasi dialektologik tadqiqot metodologiyasining tarkibiy bosqichlarini yago na tizimda ifodalash va zamonaviy raqamli yondashuvlarni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirishda n iboratdir.

Kalit so‘zlar: Dialektologiya, metodologiya, sheva, lahja, dialektizm, lingvistik geografiya, qiyosi y-tarixiy metod, areal lingvistika, transkripsiya, lingvistik xarita, korpus dialektologiyasi.

KIRISH

Til jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo‘lib, u hududiy, ijtimoiy, kasbiy va yosh guruhlariga qarab turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Milliy tilning hududiy xilma-xilligi sheva va lahjalar orqali ifodalanadi. Shevalar adabiy tildan farq qiluvchi, ammo milliy tilning ajralmas qismi bo‘lgan til hodisalari sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Dialektologiya tilning hududiy ko‘rinishlarini, ya’ni sheva va lahjalarning fonetik, leksik, grammatik va semantik xususiyatlarini o‘rganadigan tilshunoslik tarmog‘idir. O‘zbek dialektologiyasida shevalar milliy tilning quyi bosqichi va adabiy tilning asosi sifatida qaraladi.[1] Shu bois dialektologik tadqiqotlar nafaqat shevalarni tavsiflash, balki adabiy tilning shakllanish tarixini, milliy tilning rivojlanish yo‘nalishlarini va lingvistik xilma-xillikni aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi davrda urbanizatsiya, ommaviy axborot vositalari, ta’lim va raqamli kommunikatsiya ta’sirida jonli dialektal nutq tez o‘zgarib bormoqda. Ba’zi dialektal xususiyatlar yo‘qolib bormoqda, ayrimlari esa adabiy til bilan yaqinlashmoqda. Bu esa dialektal materialni o‘z vaqtida yig‘ish, saqlash va ilmiy tahlil qilish zaruratini kuchaytirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — dialektologik tadqiqotlarning metodologik tizimini va ularning lingvistik ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash hamda zamonaviy tadqiqot amaliyotiga moslashtirishdir.

Tadqiqot vazifalari:

- dialektologik tadqiqotning obyekti va predmetini belgilash;
- dialektal materialni yig‘ish va transkripsiya qilish tamoyillarini yoritish;
- dialektologiyada qo‘llaniladigan asosiy tadqiqot usullarini tizimlashtirish;
- qiyosiy-tarixiy, areal, statistik va korpus metodlarining imkoniyatlarini ochib berish;

[1] Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – B. 5.

● dialektologik tadqiqotdagi dolzarb muammolarni aniqlash va ularni yechish yo‘llarini taklif etish.

Tadqiqot obyekti — o‘zbek tilining sheva va lahjalari, dialektal matnlar, dialektizmlar hamda jonli dialektal nutq materiallari.

Tadqiqot predmeti — dialektologik tadqiqotlarning metodologik tamoyillari, tadqiqot usullari va ularning lingvistik ilmiy-nazariy asoslari.

Ilmiy yangilik maqolada dialektologik tadqiqot metodologiyasi yagona bosqichli tizim sifatida talqin etilganligi, an’anaviy maydon tadqiqotlari bilan raqamli korpus va statistik metodlarning uyg‘unligi asoslanganligida namoyon bo‘ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Dialektologiya metodologiyasi masalasi o‘zbek tilshunosligida alohida o‘rin tutadi. T. Enazarovning “Dialektologiya metodologiyasi” monografiyasida dialektal so‘z maqomi, dialektal materialni yig‘ish, transkripsiya qilish va tahlil qilish masalalari ilmiy asoslab berilgan.[2] Ushbu tadqiqotda dialektal so‘z maqomi termini amaliy dialektal kuzatishlar asosida ilmiy aylanishga kiritilgani ta’kidlanadi.

O‘zbek shevalarini o‘rganishda tavsifiy va qiyosiy metodlar an’anaviy ravishda keng qo‘llanilib kelingan. Shevalarning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari adabiy tilga qiyoslab o‘rganilgan; XIX asr oxirlaridan boshlab qiyosiy-tarixiy metod ham tadqiqot amaliyotiga kiritilgan.[3]

Areal lingvistika va lingvistik geografiya yo‘nalishlarida esa shevalarning hududiy tarqalishi, izoglossalar va lingvistik xaritalar masalasi o‘rganilmoqda. Areal tadqiqotlarda geografik-tahliliy, sinxron va diaxron tavsiflash, komparativ, kross-lingvistik hamda empirik yondashuvlar qo‘llaniladi.[4]

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda korpus dialektologiyasi, sotsiolingvistik tahlil va statistik metodlarning ahamiyati ortib bormoqda. Korpus shevashunosligida sotsiolingvistik yondashuv, statistik tahlil, kontrastiv tahlil va korpus tahlili bir-birini to‘ldiruvchi metodlar sifatida qo‘llaniladi. Shu bilan birga, dialektal materiallarni yig‘ish, saqlash va raqamli muhitda tahlil qilish bo‘yicha yagona metodik talablar hali to‘liq shakllanmaganligi tadqiqotdagi “bo‘sh joy” sifatida ko‘zga tashlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, areal-kartografik, statistik va korpus metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqotning metodologik asosini til tizimliligi, sinxroniya va diaxroniya uyg‘unligi, qiyosiylik, areallik hamda sotsiolingvistik omillarni hisobga olish tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

● Material yig‘ish bosqichi: dialektal material so‘zlovchilarning erkin nutqi, so‘rovnoma, suhbat, folklor namunalari va mahalliy matnlar asosida to‘plandi.[5]

● Transkripsiya bosqichi: yig‘ilgan materiallar fonetik transkripsiya yordamida aniqlashtirildi.

● Tasifiy-tavsifiy tahlil bosqichi: dialektal material fonetik, leksik, morfologik va sintaktik jihatdan tavsiflandi.

● Qiyosiy va qiyosiy-tarixiy tahlil bosqichi: dialektal birliklar adabiy til, boshqa hudud shevalari va qardosh tillar bilan qiyoslandi.

● Areal va kartografik tahlil bosqichi: lingvistik hodisalarning hududiy tarqalishi aniqlanib, izoglossalar va lingvistik xaritalar asosida tahlil qilindi.

● Statistik va korpus tahlili bosqichi: dialektal birliklarning qo‘llanish darajasi, hududiy tarqalishi va adabiy til bilan munosabati raqamli ko‘rsatkichlar asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Dialektologik tadqiqotning lingvistik-nazariy asoslari

[2] Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
[3] Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 18–24.
[4] Olloyorov Q.M. Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari. – Toshkent: «Adabiyot uchqunlari», 2020. – B. 12.
[5] “O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari” to‘plami. – Toshkent, 2025.

Dialektologik tadqiqotlar bir nechta lingvistik-nazariy tamoyilga tayanadi. Birinchidan, til tizim sifatida qaraladi. Shevadagi har bir tovush, so‘z yoki grammatik shakl alohida hodisa emas, balki umumiy til tizimining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilinadi.

Ikkinchidan, dialektologiyada sinxron va diaxron yondashuvlar uyg‘un qo‘llaniladi. Sinxron tahlil shevaning hozirgi holatini, diaxron tahlil esa uning tarixiy rivojlanishini o‘rganadi. Uchinchidan, qiyosiylik tamoyili dialektologik tahlilning asosini tashkil etadi. Shevalar adabiy til bilan, bir-biri bilan va qardosh tillar bilan qiyoslanadi. To‘rtinchidan, dialekt materiali adabiy tilga qarshi qo‘yilmaydi. Shevalar adabiy til shakllanishining muhim manbai bo‘lib, adabiy tilning hududiy va tarixiy asoslarini ochib beradi.[6]

2. Dialektal materialni yig‘ish va transkripsiya qilish

Dialektologik tadqiqotda material yig‘ish jarayoni tadqiqotning ishonchliligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Material yig‘ishda so‘zlovchining ijtimoiy holati, yoshi, ta’lim darajasi, ko‘chish tarixi va til muhiti hisobga olinishi lozim. Dialektal matnlar sheva vakillarining o‘zaro muloqot vaqtidagi nutqlarini yozib olishda qo‘llaniladi. Bu esa materialning tabiiyligini va ilmiy qiymatini oshiradi.

Transkripsiya dialektologik tadqiqotning muhim bosqichi bo‘lib, u dialektal tovushlarning aniq talaffuzini yozma shaklda qayd etadi. Transkripsiya yordamida dialektal tovushlarning adabiy tildagi tovushlardan farqi, urg‘u, bo‘g‘in tuzilishi va fonetik o‘zgarishlar aniqlanadi.

3. Dialektal so‘z maqomi va turlari

Dialektal so‘z — ma’lum hududda qo‘llanilib, adabiy til me’yorlaridan fonetik, leksik-semantik yoki grammatik jihatdan farq qiluvchi so‘zdir. Dialektal so‘z maqomini aniqlashda so‘zning qo‘llanish hududi, adabiy tildagi mavjudligi, semantik xususiyati va fonetik ko‘rinishi birgalikda tahlil qilinadi.

- Fonetik dialektizm — adabiy tildagi so‘z bilan ma’nosi bir xil, lekin talaffuzi farq qiladi.
- Leksik dialektizm — adabiy tilda qo‘llanilmaydigan yoki boshqa so‘z bilan ifodalanadigan mahalliy so‘z.
- Semantik dialektizm — adabiy tildagi so‘z bilan shakli bir xil, ammo ma’nosi farq qiladi.
- Grammatik dialektizm — so‘z yasalishi, o‘zgarishi yoki grammatik shakllar jihatidan adabiy tildan farq qiladi.

4. Qiyosiy-tarixiy va areal tahlil natijalari

Qiyosiy-tarixiy metod dialektizmlarning kelib chiqishini, tarixiy ildizlarini va qardosh tillar bilan aloqasini aniqlash imkonini beradi. Bu metod yordamida shevalar o‘rtasidagi qadimgi aloqalar, adabiy tilning shakllanishida qaysi shevalarning ko‘proq ishtirok etgani hamda fonetik, leksik va grammatik o‘zgarishlarning rivojlanish yo‘nalishlari aniqlanadi.

Areal metod esa dialektal hodisalarning hududiy tarqalishini o‘rganadi. U yordamida bir tovush, so‘z yoki grammatik shaklning qaysi hududlarda qo‘llanilishi aniqlanadi. Kartografik metod esa lingvistik hodisalarni xarita shaklida aks ettirib, shevalarning hududiy chegaralari, o‘tish zonalari va lingvistik farqlarini ko‘rsatadi.[7]

5. Zamonaviy raqamli yondashuvlar

Zamonaviy dialektologiyada an’anaviy maydon tadqiqotlari bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar, elektron korpuslar, audioyozuvlar va geoinformatsion tizimlar qo‘llanilmoqda. Korpus dialektologiyasi shevalar korpusini tuzish va undan dialektlarni o‘rganishda foydalanish bilan shug‘ullanadi.

- dialektal so‘zlarning qo‘llanish chastotasini aniqlash;
- turli hudud shevalarini avtomatik qiyoslash;
- fonetik va grammatik hodisalarni katta material asosida o‘rganish;
- dialektal lug‘at va lingvistik atlaslarni raqamli shaklda tuzish;

[6] Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi. – Toshkent, 1972.
[7] “Milliy qadriyatlar dialektologik atlasi – tarixni o‘rganishda muhim manba” materiallari. – Navoiy davlat pedagogika universiteti, 2024.

● tadqiqot natijalarini ilmiy aylanishga tezroq kiritish.

Statistik tahlil esa dialektal birliklarning qo‘llanish darajasi, hududiy tarqalishi va adabiy til bilan munosabatini raqamli ko‘rsatkichlar asosida aniqlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dialektologik tadqiqotlar metodologiyasi dialektal materialni yig‘ish, transkripsiya qilish, tasniflash, qiyoslash, statistik tahlil qilish va areal-kartografik modellashtirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu metodologik tizim lingvistik ilmiy-nazariy asoslar, xususan til tizimi, sinxroniya-diaxroniya, qiyosiylik, areallik va sotsiolingvistik yondashuv tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

● Dialektologik tadqiqotda material yig‘ish, transkripsiya va tahlil bosqichlari yagona metodologik tizimni tashkil etadi.

● Dialektal so‘zlar fonetik, leksik, semantik va grammatik turlarga ajratilishi mumkin.

● Qiyosiy-tarixiy metod dialektizmlarning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini aniqlashda samaralidir.

● Areal va kartografik metodlar shevalarning hududiy tarqalishini va lingvistik farqlarni aniqlash imkonini beradi.

● Zamonaviy korpus va statistik metodlar dialektologik tadqiqotning aniqligini va ilmiy qiymatini oshiradi.

Kelgusida o‘zbek dialektologiyasida yagona elektron dialektal korpus, standartlashtirilgan transkripsiya tizimi va hududiy lingvistik atlaslar yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu esa shevalarning boy lingvistik merosini saqlash, ilmiy o‘rganish va keyingi avlodlarga yetkazish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi. Monografiya. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. — 152 b.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – B. 5
3. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 18–24;
4. Olloyorov Q.M. Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari. – Toshkent: «Adabiyot uchqunlari», 2020. – B. 12.
5. Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi. – Toshkent, 1972.
6. “O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari” to‘plami. — Toshkent, 2025.
7. “Milliy qadriyatlar dialektologik atlasi – tarixni o‘rganishda muhim manba” materiallari. — Navoiy davlat pedogogika universiteti, 2024
8.